



BADIY ADABIYOT VOSITASI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi
University of Business and Sciens
nodavlat olyi ta'lim muassasasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada badiy adabiyot vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi hamda fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari va usullari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Shakllantirish, nutq, badiy adabiyot, maktabgacha yoshdagi bolalar, fikrlash faolligi, axloqiy, estetik rivojlanishi, xususiyati.

Annotation: The article talks about the content, specific features and methods of forming the speech and thinking skills of preschool children by means of fiction.

Keywords: formation, speech, fiction, children of preschool age, thinking activity, character of moral, aesthetic development.

Аннотация: В статье говорится о содержании, особенностях и методах формирования навыков речи и мышления дошкольников средствами художественной литературы.

Ключевые слова: образование, речь, художественная литература, дети дошкольного возраста, мыслительная деятельность, характер нравственности, эстетическое развитие.

Kirish

Mamlakatimizning zamонавиј ва јозибадор қиёфасини юратиш, Yangi O'zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi. Bu borada bir fikrni alohida ta'kidlash joizki, keyingi yillarda hayotimizning barcha sohalarida keng qamrovli islohotlar va tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda hamda ushbu islohotlar bevosita ta'lim, xusususan, maktabgacha ta'lim tizimida ham muhim ijobjiy yangilanishlarni yuzaga keltirmoqda.

«Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlanirish orqali keljakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz.



Zero, bu ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q», – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadri uchun – 100 maqsad” belgilangan bo‘lib, ular orasida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishga oid vazifalar alohida o‘ringa ega. **Strategiyaning 39-maqsadi** “Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish”¹ deb nomlanib, unda “Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish”² asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan. Albatta, ulkan taraqqiyot sari intilayotgan har bir jamiyat o‘z e’tiborini yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga qaratishi, asosiy investitsiyani bola kelajagi uchun sarflashi va bu borada samarali natijalarni ko‘rsatuvchi yo‘nalishlarni tanlashi lozimligi dunyo olimlari tomonidan alohida ta’kidlab o‘tilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola har tomonlama maktab ta’limiga tayyorlanadi. Ular orasida bola nutqini rivqjlantirish eng asosiylaridan hisoblanadi. Ularning so‘z boyligi oshishi ravon gapirishi va o‘z fikrini to‘liq ifoda etib, aytib bera olishi juda muhim. Shu sababli maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘tiladigan mashg‘ulotlar orasida nutq o‘sirish mashg‘uloti eng asosiy mashg‘ulotlardan hisoblanadi. Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning quadratli, ta’sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqining rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko‘rsatadi..

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolaning nutqni rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko‘rsatadigan bolalarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasining kuchli ta’sirchan vositasidir. U his-tuyg’ularni boyitadi, tasavvurni kuchaytiradi, bolaga o‘zbek adabiy tilining ajoyib namunalarini beradi. Badiiy adabiyot bolaga jamiyat va tabiat hayotini, odamlarning hissiyotlari va munosabatlar dunyosini ochadi va tushuntiradi. Bu bolaning tafakkuri va tasavvurini rivojlantiradi, his-tuyg’ularini boyitadi va o‘zbek adabiy tilining ajoyib namunalarini beradi. Uning tarbiyaviy, kognitiv va estetik ahamiyati beqiyosdir, chunki bolaning atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarini kengaytirish, ona tilining shakli va ritmini nozik his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Badiiy adabiyot insonga hayotining birinchi yillardanoq hamroh bo‘ladi. Bolaning ongida adabiy asar mazmun va badiiy shakl borligida paydo bo‘ladi. Bola bunga tayyorlangandagina adabiy asarni idrok etish to‘liq bo‘ladi. Va buning uchun bolalarning e’tiborini nafaqat mazmuniga, balki ertak, hikoya, she’r



va boshqa badiiy asarlar tilining ifodali vositalariga ham jalg qilish kerak. Hikoyalarda bolalar so'zning ixchamligi va aniqligini o'rganadilar; xalq ertaklarida, tilning yengilligi va ta'sirchanligini, hazil bilan nutq boyligini, jonli va obrazli iboralar, taqqoslashlar bolalar oldida ochib beradilar.

Maktabgacha ta'lif muassasasida sog'gom, tabiiy muhit yaratish, bolalarning to'g'ri muomalaga kirishtirish, boshqalar bilan gaplashish ishtiyoqining ortishiga turtki bo'ladi. Buning uchun bolalar nutqining shaklan va mazmunan mantiqiy birligiga erishishi muhim talab hisoblanadi.

Nutq madaniyati ko'p qirrali hodisa, uning asosiy natijasi adabiy til me'yorlariga muvofiq gaphirish qobiliyatidir. Nutqning to'g'riliqi va kommunikativ maqsadga muvofiqligi adabiy tilni o'zlashtirishning asosiy bosqichlari hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning nutqi tashqi olam bilan bog'langan holda uchta vazifani bajaradi:

- 1) kommunikativ;
- 2) bilish,
- 3) tartibga solish.

Bolaning ilk bor aytgan birinchi so'zi kommunikativ vazifani bajaradi. Keyinchalik yesa bu so'z bolaning atrofdagi kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji o'sib borgani sari nutq sifatida takomillashib boradi. Ikki yoshdan boshlab bola o'z istak-xohishini atrofdagi kishilarga tushunarli tarzda ifodalay oladi, o'ziga qarata aytilgan nutqni, so'zlar ma'nosini tushuna boshlaydi. Uch yoshdan keyin bola ichki nutqni egallaydi. Bu vaqtida nutq uning uchun muomala vositasi bo'libgina qolmay, balki boshqa vazifani — bilish vazifasini bajara boshlaydi; yangi so'zlar va so'z shakllarini o'zlashtira borib, tevarak-atrof haqidagi, predmet va hodisalar, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bolaga qaratilgan nutq uning xulq-atvorini tartibga solib turuvchi, qilinadigan ishlarni rejallashtirishga undovchi vositadir. Biz nutq orqali, ya'ni til vositasi bilan har xil mulohazalar yuritamiz. Badiiy adabiyot axloqiy his-tuyg'ular va baholarni, axloqiy xatti-harakatlarning normalarini shakllantiradi. Bolalar bog'chasi maktabgacha yoshdagi bolalarga bolalar uchun eng yaxshi asarlar bilan tanishtiradi va shu asosda axloqiy, aqliy, estetik ta'limning o'zaro bog'liq muammolarini hal qiladi. Adabiyotlarning asarlari nutqni rivojlantirishga yordam beradi, kitobdan bola ko'plab yangi so'zlarni, majoziy iboralarni o'rganadi, nutqi hissiy va she'riy lug'at bilan boyitilgan. Adabiyotlarga taqqoslash, metaforalar, epithets va turli xil majoziy ma'noda boshqa yo'lovchi vositalaridan foydalangan holda tinglashga yordam beradi. Kitob bilan tanishish paytida nutq va estetik



rivojlanish aniq harakat qilinmoqda, til estetik funktsiyada tilga kiradi. Tilga ega bo'lish, adabiy asarlarni badiiy idrok etishning rivojlanishi.. Qahramonlar bilan badiiy asarlar haqida tashvishlanishni o'rganib, bolalar yaqin va atrofdagi odamlarning kayfiyatini payqashmoqda. Odamlar his-tuyg'ularini uyg'otishni boshlaydi - ishtirok etish qobiliyati. Ahribonlikadolatsizlikka qarshi norozilik namoyishi. Bu asos, halollik, haqiqiy fuqarolik ko'tarilishning asosidir. Bolaning his-tuyg'ulari uning o'qituvchisi bilan tanishadigan ishlarning tilini o'zlashtirish jarayonida rivojlanmoqda. Badiiy so'z bolaga yoqimli nutqning go'zalligini tushunishga yordam beradi, u atrofdagi va bir vaqtning o'zida uning axloqiy (axloqiy) topshiriqlarini shakllantiradi. Badiiy adabiyot qahramonning shaxsiyati va ichki dunyosiga qiziqish uyg'otadi. Bolalarda insonparvarlik tuyg'ulari uyg'onadi - ishtirok etish, xushmuomalalik,adolatsizlikka qarshi norozilik qobiliyati. Asta-sekin bolalar adabiy asarlarga ixtirochilik munosabatini rivojlantiradi va badiiy did shakllanadi.

Xulosa: o'rnida takidlash lozimki, badiiy adabiyotni orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish shu bilan birga ularning xulq-atvorni o'rganishda, tarbiyachi insoniy tuyg'ular va axloqiy g'oyalarni shakllantirish uchun asarlarni tanlash va badiiy asarlar bo'yicha suhbatlar o'tkazish bola hayotida uning nutqini o'tkazish uchun alohida e'tibor berishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son. <https://lex.uz/docs/-5841063>.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T. 2021. – B. 6.
3. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
4. M.Jumaboyev. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 1996
5. To'ychiyeva I.I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Ped. fan. bo'yicha fal. dok. diss. – T. 2020. – B. 152. (- 12 b.)
6. Asqarova D. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish usullari // Журнал Мир исследований, 3/2021. – B. 42-49.
7. www.ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti
8. Paul H. Fry. Theory of literature